

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy

AL-JOMI' AS-SAHIH (1-jild)

Arabchadan **Zokirjon Ismoil** tarjimasi

Qomuslar Bosh tahririyati
Toshkent
1991

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Shayx, imom va hofiz (Qur'on va hadisni yod biluvchi) Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra al-Buhoriyni Alloh taolo rahmat qilsin, omin!

1-bob. Rasululloh sallolohu alayhi va sallamga nechuk vahiy kela boshlagani hamda Ollah taoloning "Biz senga Nuh va undan keyingi payg'ambarlarga nechuk vahiy yuborgan ersak,shunday vahiy yubordik" degan qavli hususida.

Yahyo inb Sa'id rivoyat qiladilar: "Umar ibn al-Xattob minbarda turganlarida: " Rasululloh sallolohu alayhi va sallamning bunday deganlarini eshitganman", -dedilar: "Darhaqiqat, barcha amallar niyatga yarasha bo'lg'usidir. Kimki hijratdan niyati dunyo topmoq ersa, dunyoga erishg'usi, kimki hijratdan niyati xotin olmoq ersa, xotinga nikohlang'usidir. Demak ne niyatda hijrat qilganlig'i etiborga oling'usidir"

Urva ibn Zubayr rivoyat qiladilar, u kishi ersa, Oisha onamizdan eshitgan erkanlar: "Horis ibn Hoshim (r.a) Rasulullohi alayhi va sallamdan: "Yo Rasululloh, sizga vahiy nechuk kelg'usidir", - deb so'radi. Rasululloh sallolohu alayhi va sallam "Menga vahiy, ba'zan qo'ng'iroq ovozi yanlig' kelg'usidir. Kuchli vahiy kelganda shunday bo'lg'ay. Shunda men butun borliqni unutm'um va vahiy so'zlarini uqib olg'umdir. Ba'zan esa, menga inson qiyofasidagi farishta vahiy keltirg'ay, men uning aytganlarini yodlab olg'ayman", -deb javob qildilar"

Oisha (r.a) : "Qattiq sovuq kunlardan birida ul kishiga vahiy kelganining guvohi bo'lgan erdim. Shunda ul zot butun borliqni unutgan holatda bo'lib, peshonalari qattiq terlab ketgan erdi", - deb aytdilar.

Urva ibn Zubayr Oisha onamizdan bunday deb naql qiladilar: "Dastlabki vahiy Rasululloh sallolohu alayhi va sallamga uyqularida sof tush tarzida nozil bo'lgan erdi. Keyin, tong shafag'i yanglig' nurdan o'zgasi tushlariga kirmay qo'ydi. Shundan so'ng, Rasululloh yolg'izlikni xushlaydigan bo'lib qoldilar. Oilalarini tark etib, yolg'iz o'zlari Hiro' tog'idagi g'orda qatorasiga bir necha tun toat-ibodat qilib chiqar erdilar. Shu boisdan ham o'zlari birlan yegulik olib chiqib ketar erdilar. Yeguliklari tugagach, Xadichaning huzurlariga